

Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат
Архитектура - Курилиш Институтини

“Курилишни бошқариш” факультетини
“Касбий таълим” кафедрасини



Диплом лойиҳасининг ТУШУНТИРИШ ХАТИ

**Мавзу: Хужа Исмоил Имом ал-Бухорий масжидини
рангтасвирда тасвирлаш
ва уни ўқитиш услуги.**

Кафедра мудири: доц. Рахимов А.Қ.
Раҳбар: доц. Султонова Д.Н.
Маслаҳатчи: Ўқт. Меликулов А.Н.
Битирувчи: 401- КТ(с) гуруҳи
талабаси Ёдгорова Мухайё.

Самарқанд 2013 йил.

МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ
АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

«Қурилишни бошқариш» факультети
« Касбий таълим » кафедраси

ТУШУНТИРИШ ХАТИ

Диплом лойиҳасининг мавзуси

Ўрта Номини Истифоти --
Тўғрисида лойиҳасининг раҳбарлигида
таъсирини ва уни ўқитиш
қилини.

Диплом лойиҳасини
бажарувчи толиб (а)

Егорова Музаир

(Ф.И.Ш.)

Кафедра мудири

доц. Рахмонов А.Б.

(Ф.И.Ш.)

Раҳбар

доц. Сулейманова Д.Н.

(Ф.И.Ш.)

Маслаҳатчилар

доц. Мешковцев А.Н.

(Ф.И.Ш.)

(Ф.И.Ш.)

(Имзо)

(Имзо)

(Имзо)

(Имзо)

(Имзо)

Мирзо Улугбек номидаги Самарқанд Давлат Архитектура
Қурилиш Институти

«Қурилиш бопқариш» факултети

«Қасбий таълим» кафедраси

ДИПЛОМ ЛОЙИХАСИНИ БАЖАРИШ УЧУН
ТОПШИРИҚ

Ёдгирова Музаёё

401-КТ(с)

(таълимнинг фамилияси, исми, шарифи)

I. Диплом лойиҳасининг мавзуси Ўйна Ўсимон Ўсимон
ал-Бухорийи мактабидини рангтаъвирда тасвирлаш
ва уни ўқитиш усуллари.

Институт буйича 20²⁴ йил «29» 12. 2025 й. – сон буйруқ асосида тасдиқланган.

II. Диплом лойиҳасининг бажариш учун маълумотлар Рангтаъвирда
маъмурий мактабга шимол буйига келтирилган
маълумотлар. тўғрисида.

III. Тўшутириш хатида келтириладиган:

1. Мавзу бўйича маълумотлар тўплани, уларнинг таҳлили на асослаш Ўқимон
маълумотлар таҳлили қилинган, мавзу асосида
ва диний шимол мактабга тузилган.
2. Диплом лойиҳасининг назарий шакли ишланмалари Рангтаъвирда
маъмурий мактабга шимол асосида
назариянинг қўйилган.
3. Диплом лойиҳасининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш Мавзу
оид эскиз тайёрлаш ва қаракли ўқимонда шимол
бўлиш.
4. Ҳуқуқ услубий қисми Мавзу бўйича дарс бериш режасини ту-
заб, 2-святлик дарганига маъмурий қўйилганларини
қилиш қилиш ва қаракли ўқимонда тасвирлаш
ни қўйилган дарс ўқимон услубий қилиш.
5. Диплом лойиҳаси бўйича ҳулоса қисми
Қаракли шимол мактабга шимолда тасвирлаш
қилиш шимол бўйича шимолда қилиш қилиш.
6. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати Қаракли шимол мактабга
қилиш қилиш адабиётлар ва маъмурий
қилиш қилиш қилиш қилиш.

IV. Диплом лойихасининг таркиби ва график қисми:

1. Рангтаъбирнинг исъомдорий маъжара шаклида баъжаришган ш.
2. Исъомдорий маъжара шаклида баъжаришган ш.
3. „Амалий-назарий“ методи бўйича ўқилган 80-минутлик дарс таълимоти.
4. _____

V. Диплом лойихасининг қисмлари бўйича маслаҳатчилар:

№	Диплом иши қисмлари	Бошланиши	Тугаллигини	Маслаҳатчилар	Изоҳ
1.	Мазку бўйича маълумотлар тузлаш, уларнинг тахлити ва асослаш.	1. 03. 13	25. 03. 13	Султонова Д.	
2.	Диплом иши назарий шаклининг лойиҳамалари.	26. 03. 13	12. 04. 13	Султонова Д.	
3.	Диплом ишининг амалий шакли бўйича ҳақиқат баъжариш.	13. 04. 13	10. 05. 13	Мамедов А.	
4.	Ўқув услубий қисми.	11. 05. 13	15. 06. 13	Рахмонов А.	

Изоҳ:

1. Диплом лойиҳаси «Низом» та асоси баъжарилади.
2. Хар бир топшириқда кўрсатилган муддат охирида раҳбар ёки маслаҳатчи томонидан имзолаш аниқ кейин нанибати қисмини баъжаришга кафедра томонидан руҳсат берилди.

VI. Топшириқ берилган сана 1. 03. 13

VII. Тугалланган диплом лойиҳасини топширилган сана 15. 06. 13

Диплом лойиҳаси раҳбари доц. Султонова Д. Н. (фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Топшириқ баъжариш учун қабул қилинди Ёдгорова М. (фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Кафедра мудири доц. Рахмонов А. Ё. (фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

MUNDARIJA:

I.	KIRISH.....	1-2
II.	Mavzuni asoslash.....	3-5
III.	Xoja Ismoil Imom al-Buxoriy.....	6-14
IV.	Rangtasvir sanati..... (Memoriy manzara ishlash ketma-ketligi)	15-23
V.	Atrof muhit muhofazasi qismi.....	24-26
VI.	Oquv uslubiy qism.....	27-41
VII.	Xulosa.....	42-43
VIII.	Adabiyotlar.....	44-45


Kirish

Kirish

Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohatlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqorolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashxis qilib borishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

**Prezident I.A. Karimovning
1995 yil fevral oyidagi
O'zbekiston Respublikasi Oliy
Majlisining birinchi
sessiyasidagi
maruzasidan.**

Mavzuni asoslash



Mavzuni asoslash


Bundan besh asr muqaddam Mirzo Bobur islom dinining asosiy ilmlari : ilmu xadis, ilmu kalom va ilmu faqlining zabardast nomoyondalari bo'lmish uch mo'tabar zot Imom Buxoriy, Shayx Abu Mansur Motrudiy, Burxoniddin Marg'iloniylarning ko'xna turkiston farzandlari ekanligini ta'kidlab "Hazrati risolat zamonidan beri ul nuqdor islom kim (Islom Olimlari kim) Movoraunnaxhdin paydo bo'libtur, hech viloyattdin ma'lum emaskim, muncha paydo bo'lmish bo'lg'ay" deb faxrlangan edi.

Bu faxr bu g'urur bugungi avlodlarning qalbida ham yashab kelayotgani madaniyati, ma'naviyati yuksak xalqimizning o'tmishidan tayanch va suyanch bo'lib kelayotgan betakror merosni cheksiz qadrlashining namoyishi.

Halqimiz nomini muborak va munavvar etib turadigan ulug' zotlardan biri Imom Muxammad ibn Islom al – Buxoriy – buyuk muxaddis sifatida islomiy ma'rifat axlining o'y hayolida , fikru zikrida Komil Inson va Iymon ramzi sifatida sobit qoldi, odamzot va taqdir, din va falsafa ilm fan va ma'rifat muammolari o'ylantirgan vatandoshlari xotirasidan mangu joy oldi.

Bu hol yurtimizda ko'xna tarix yoqqan fikr chiroqlarining o'chmasligidan, kelajak xayollari bilan yashaydigan millatning ma'naviy va ruxiy izlanishlari asrlar osha uzviy ekanimizdan dalolat beradi. Shunday ekan men tanlagan mavzu dolzarb, bu mavzu buyuk ajdodlarimizning pok ruxlarini shod aylashga qaratilgan desam mubolag'a bo'lmaydi.

Xoja Ismoil Imom al-Buxoriy



Xo'ja Ismoil Imom al - Buxoriy memoriy majmuasi.

Hammamizga ma'lumki 1998-yil 24 oktyabr sanasida Samarqand viloyatining Payariq tumanidagi Hartang qishlog'ida, hadis ilmining sultoni Imom al- Buxoriy bobokalonimiz tavalludining 1225- yillik to'yi munosabati bilan yodgorlik majmuining ochilishi bo'lib o'tdi.

Bu kun ulug' ajdodimiz Imom al-Buxoriy hazratlarining ruhini shod etish, bobokalonimiz tavallud topgan muqaddas zaminda ul zoti sharifning xotirasini yod etish kuni bo'ldi. Xalqimiz ozodligimizning dastlabki yillaridanoq Imom al – Buxoriy hazratlarining ruxini shod etish, bobokalonimiz tavallud topgan muqaddas zaminda ul zoti sharifning xotirasini yod etish kuni bo'ldi.

Xalqimiz ozodligimizning dastlabki yillaridanoq Imom al – Buxoriy maqbarasini ul zotning shon shavkatiga munosib yon atrofi munavvar go'shaga, ziyoratga kelgan mo'min – musulmonlarga ruhiy manaviy kuch ato etadigan qadamjoga aylantarishni orzu qilgan edi.

Oллоhning inoyati bilan ezgu niyatlar ijobat bo'ldi. G'ozal O'zbekistonimizni butun dunyoga tanitadigan, yosh avlodimizni

ezgulik ruhida tarbiyalaydigan, har bir insonni hayot va abadiyat haqida o'ylantiradigan aziz maskan barpo qilindi.

Mamlakatimiz ko'rkiga ko'rk qo'shadigan bunday betakror va ko'rkam binolar har bir yurtdoshimizni mamnun etishi, yuragida g'urur uyg'otishi tabiiydir.

Yurtboshimiz Islom Abdug'anievich Karimov boshchiligidagi bu qutlug' maskanni bunyod etgan ustalarimizning mehnati har qancha taskinga arziydi.


Bu ulug'vor majmua Samarqand, Buxoro, Xivay, Toshkent, Andijon, Namangan, shaxrisabz, Qo'qon va Marg'ilon shaharlaridan, mamlakatimizning turli viloyatlaridan kelgan fidoyi insonlar mehnatining samarasidir.

Ziyoratga borgan har bir inson, qo'li gul ustalarning, mohir me'morlarimizning san'atiga tan berishlari tabiiy.

Ayniqsa majmua ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan, milliy uslubda ishlangan ustunlar o'zgacha savlat to'kib turibdi. Bu ustunlarda xalqimizning qadimiy san'at turlaridan bo'lmish, yog'och o'ymakorligi san'ati mujassam.

Bu san'atdan ozginada habari bor har bir inson, qo'li gul ustalarning mahoratiga lol qolishlariga hech kim shubha qilmasa bo'ladi.

Xalq hunarmandchiligi tarixi, xalqlarning etnik xususiyatlari, milliy qadriyatlarini to'liq ifolaydigan soha bo'lib xizmat qila oladigan ma'naviy, moddiy merosimizdir.







22




Photo by A. Yodanisov
© GrexCA.com

29 10 2008

Rangtasvir sanati

(Memoriy manzara ishlash ketma-ketligi)

Rangtasvir san'ati

Rangtasvir – tasviriy san'atning turi.

Biron bir qattiq yuzada (karton, xolst, gruntlangan mato) rangli ashyolarda (akvarel, guash moybo'yoq, tempera), masalan bo'yoqlarda yaratiladigan badiiylashtirilgan asardir.

Rangtasvir voqelikni badiiy tasvirlash va uni talqin qilish demakdir.

Rangtasvir tomoshabin fikri va tuyg'ulariga ta'sir etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Rangtasvir muhim ijtimoiy mazmun va rang barang g'oyaviy vazifalarga ega. Rassom tamonidan yaratilgan rangtasvir asarining g'oyaviy mazmuni uning mavzu va syujetida mujassamlashadi. Syujetni rassom rang tasvirning ifoda vositalari orqali ommaga oshiradi.

Bular:

1. Kompozitsiya
2. Rasm
3. Rang
4. Ritm va boshqalar.

Rangtasvir asarlari quyidagi asoslarda ishlanishi mumkin:

1. Maxsus ishlov berilgan mato (surf)
2. Yogoch
3. Qogoz
4. Karton
5. Shisha
6. Metall va h.k.

Rangtasvir ishlashda qollaniladigan rang qatlami esa quyidagilar:

1. Moybo'yoq
2. Guash
3. Tempera
4. Akvarel
5. Rangli shisha
6. Rangli tosh va hokazo.

Rangtasvirning muhim tasviriy va ta'sir vositasi – **rang** (kalorit). **Rang** orqali rassom borliq yoki hayoliy dunyoni ko'rinarli shakllarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang barangligini, moddiylikni hajm va fakturasini ko'rsatish, harakat, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar, murakkab hissiy kechinmalar, o'y – hayollarini aks ettirishi mumkin.

Rangtasvir asarlari ishlanishini shartli ikki – yassi va hajmli – fazoviy uslubga ajratish mumkin. Birinchi uslubda tasvir nursoyasiz yaxlit, yassi shakllarda ishlanadi, hajmli - fazoviy usulda esa tasvir hajmli nursoya yordamida muhit bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Bunday asarlar rangga boy bo'lib, unga ranglarning barcha tuslanishlarini his etish, tushuvchi barcha nurning qaytgan rangini ham, qaytgan nurlarning tuslanishi va boshqa ranglar bilan boyishini ko'rish mumkin.

Rangtasvir asarlarida bu ikki uslub orasida qat'iy chegara yo'q, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Rangtasvir asarlari o'zning ishlashini o'rni, mazmuni, bajaradigan vazifasi, ishlanish uslubi va ko'rinishiga qarab monumental, bezak, dastgoh san'ati, dekaratsiya, miniatyura va boshqalarga bo'linadi.


Tasvir mavzusi va mazmun yo'nalishiga qarab bir qator janrlarga ajratishadi:


1. Animalistika
2. Tarixiy janr
3. Maishiy janr
4. Batal janri
5. Partret janri
6. Manzara janri
7. Natyurmort janri


va boshqalar.


Mening holimda **rangtasvir**ning manzara janridan foydalanishga to'g'ri keldi. To'g'rirog'i me'moriy manzara janridan desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki men tasvirlayotgan bino, memoriy obida hisoblanadi.


Memoriy manzara ishlash ketma-ketligi.











Atrof muhit muhofazasi qismi

Tabiat o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, inson va jamiyat uning xosilasidir. U tabiat evaziga mavjud va rivojlanadi. Inson o'z ehtiyojlarini tabiat hisobiga qondiradi. U tabiatdan havo, suv, oziq ovqat, mineral va yoinilg'i xomashyolarni oladi va o'zining hayot faoliyati davomida tabi'atga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada tabiat uchun yod bo'lgan yangi obyektlar vujudga keladi. Bular: shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, yo'llar, konlar, suv omborlari, qishloq xo'jalik yerlari va boshqalardir. Inson aql – idrokli va mehnati tufayli yuzaga kelgan bunday antropogon landshaftlar atrof tabiiy muhitiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yer yuzida aholining sonining keskin o'sib borishi, fan va texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaydiganligi mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqozo qiladi. Natijada tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami kechmi ekologik inqirozga olib keladi.

Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko'pchilikni birdek bezota qilmoqda. Ekologik halokat ko'z o'ngimizda daxshatli tus olmoqda. Atrof – muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda, hozirgi ekologik inqirozning sababchi va o'z aqli zakovoti bilan shu inqirozdan holi etuvchisi ham inson ekanligi ma'lum bo'lib qoldi. Atrof muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab – tergab foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat'i nazar insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga

bo'g'liq. Mustaqil respublikamizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asarlari" fanini o'qitish muhim ahamiyatga ega.

Oquv uslubiy qism

Pedagog qanday bo'lishi kerak.

Inson avvalo harakat qiladi, va harakatining yengil bo'lishi keyinchalik shu harakatning bekorga ketmasligini istaydi. Agar insonda mana shunday go'zal xususiyatlar yoki fazilatlar va irodani boshqa kishilarda hosil qilish yo'lini o'rganish va irodani boshqa kishilarda hosil qilish yo'lini o'rganish kerak. Lekin buning uchun unday zo'r kuch va qudrat talab qilinadi deydi. IX asr mohir pedagogi Abu Nasr Farobiy. Bunday faoliyat bo'lish jamiyatning eng ishonchli kishisi, avlodlarni avlodlar bilan bog'lovchi yetakchi kuch o'qituvchiga xos va mosdir.

To'g'ri manoda o'qituvchi so'zi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan. O'qituvchi so'zinig ma'nosida bilish, malaka va ko'nikmalarni tarlib toptirayotgan, hayotda murabbiylik qiladigan va yo'llaydigan yani pedagogic faoliyat bilan shug'ullanadigan hamda kishilarni o'qituvchi deb ataydilar. Malumki yosh avlodning maqsadga qaratilgan,holda boshqarish va tartib toptirish jarayoni bo'lmaganda jamiyat o'z rivojlanishida to'xtab qolar edi.

Pedagog kasbi boshqa kasblardan ko'pgina belgilari bilan farq qiladi. Pedagogning mehnat predmeti odam, mehnatning maqsadi insonni qayta o'zgartirish pedagogning mehnat quroli uning nutqi taffakuri ifodasi, odobi mahorati va boshqalar. Pedagogning ma'naviy, siyosiy kasbiy qiyofasiga qo'yiladigan yuksak talablar uni doimo takomillashishiga to'xtavsiz o'z ustida ishlashga majbur etadi. Pedagog kasbi qiyin, kasb qiyinchiliklari namada? Eng avvalo tarbiya ta'lim ish natijalari darhol namoyon bo'lmaydi. Bu pedagogdan katta sabr

matonat, sabr chidam, toqatni talab qiladi. O'z fanini mukammal bilish uchun o'qituvchi to'la ijtimoiy hayot bilan yashayotgan tabiatni, kitobni, sa'nat va jismoniy chiqishni sevadigan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qila oladi va ilmda mukomillikka erisha boradi. O'qituvchi umumiy ifodasida, yuzida bosiqlik, o'zini tuta bilishlik, qattiq qo''lik, imo-ishorali, go'zal bo'lishi kerak. O'qituvchi talaba yoshlar o'qituvchining nutqiga alohida ziyraklik bilan munosabatda bo'ladi.

Qandaydir tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, ular oldida qo'lga bo'lishga, bir xil maromda asoslanmagan nutq ularni zeriktiradi, baland ovozda dildan bo'lmagan suhbat ular tomonidan soxta o'zlashtiriladi va o'qituvchida ishonchsizlikni ifodalaydi. O'qituvchi nutqi tiniq, mazmunli, jarangli. Aniq, o'qituvchilar diqqatini taratadigan, fikrlashga davit etadigan va harakatga olib kelishi, ammo tebratib uyqunikektirmasligi pedagog texnikani muvofiqiyatidan dalolat beradi. Mahaoratli o'qituvchilar o'quv faoliyatining meyorini orttirib uzluksiz davom ettirib o'qituvchilarda amaliy ko'nikmani shakllantiradi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.

Kasbiy ta'lim deganda, talabalarining muayyan tipdagi o'quv yurtida (litsey, kollej, institut) o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda sistemaga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Bu bilim, malaka va ko'nikmalar doirasi eng muhim faktlar, ilmiy tushunchalar, qonun vanozoniyalarni, dunyoqarash g'oyalarniahloqiy holida estetik normalar va ideallarni, talabalarining ko'rsatilgan ma'lumotlarini o'rganish ularning ilmiy taffakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari haqidagi materiallarni shuningdek malaka va ko'nikmalarni, shu jumladan olingan bilimlarni amalda qo'llash va yangi bilimlarni egallashdagi malaka hamda ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Kasbiy ta'limning mazmuni bir qator faktlarni hisobga olish bilan belgilanadi, bu faktlarning asosiylari quyidagilardir.

- a) Ijtimoiy ishlab chiqirishning obektiv ehtiyojlarni hamda fan va texnikaning taraqqiyot darajasi, ijtimoiy tuzumining xarakteri, bunga davlatimixnin hozirgi paytda olib borayotgan, kasbiy ta'lim nazariyasi va manaviy ishlab chiqirishini yo'lga qo'yish chora tadbiralri haqidagi bosqichma bosqich islohotlari kiradi.
- b) Davlatning muayyan tipdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari. Bunday tipdagi o'quv yurtlari simosiga o'qish muddati kamida 3 yil bo'lgan akamedik litseylar va kasbiy kollejlari kirib ular oldida "Ijodiy va ijtimoiy" faolligi bilan ajralib turadigan yuqori umumiy kasbiy madaniyatni kasb etgan mutaxassisalar yangi barkamol avlodni

c) shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. Bunday barkamol avlodni shakllantirish maqsadida Vazirlar mahkamasi 1198 yil 24-fevralda qabul qilingan "Akademik litseylar va kasbiy kollejlarni tashkil etish hamda ular faoliyatini boshqarish" to'g'risidagi qarori kasbiy kollejlarni uchun malakali pedagog va muhandis pedagog kadrlar tayyorlaydigan o'ily o'quv yurtlarini kam begilab beradi.

Bu hozirgi paytda faoliyat ko'rsatayotgan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Namangan Muhandislik Pedagogika Instituti, Buxaro oziq-ovqat va yengil sanoat Instituti va bugungi kunda bitiruv malakaviy mavzularni himoya qilayotgan Samarqand davlat Davlat Arxetektura Qurilish Instituti Kasbiy ta'lim fakulteti talabalaridir. Bu esa davlatimizning o'quv yurtlari oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bosqichma bosqich avalga oshirayotgan isloxoatlari bo'lib, Kasbiy ta'lim sa'natshunoslik yo'nalishi bo'yicha bitirib chiqayotgan navbatdagi qaldirg'ochlardir.

O'qitish prinsiplari kelib chiqadigan va talablarining imkoniyatlari e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Kasbiy ta'limning mazmuni tarixiy harakterga ega. Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida u turlicha bo'lgan. Bugunga kelib esa Kasbiy ta'limning dastlabki dasturida talabalar amaliy-ma'naviy kasb darslarida egallashi lozim bo'lgan, ilmiy texnikaviy bilimlarning mehnat ko'nikmalari va malakalarining hajmi hamda mazmuni belgilab beriladi. Dasturda jamiyatimizning taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga kasb ta'limi berish va ularni tarbiyalash

sohasida davlatimiz tomonidan qo'yilgan maqsad va vazifalar konkret o'z ifodasini topadi. Kasbiy ta'lim dasturi o'quv reja asosida ishlab chiqiladi va bu oily va O'rta maxsus kasb hunar ta'limi Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Kasbiy ta'im o'qituvchisi o'zining kundalik ish faoliyatida bu dasturga amal qilib, dasturda ko'rsatilgan mavzularga maruza matnlari yozib darsga kiradi. Bu dasturga amal qilib uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. Kasbiy ta'lim daturining ishlab chiqarish vaqtida bir qancha talablari hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didotik prinsiplarga to'la-to'kis javob berishi, murakkablikning o'sib borishi hisobga olingan holatda esa kasbit ta'limning tanlangan didotik sistemasiga muvohiq ravishta muayyan izchillikda bayon qilinishi. (KPT qurilish, KPT san'at) misolida ko'rish mumkin. Turmush bilan suveren va demokratik davlat tuzi, ozod vatan qurish bilan bog'liq bo'lishi, mehnat obyektlarini tavsiya qilinadigan ro'yxati esa ijtimoiy ishlab chiqarish qimmatiga ega bo'lishi, tabiiy ilmiy sikldagi umumiy ta'lim fonlari (fizika, matematika, ximiya, chizmachilik, rasm, rangtasvir va hokazolar) bilan bog'lanishi amalgam oshirilishi, kursdan kursga o'tish vaqtida o'quv matwriali kasbiy ta'lim daturlarida muntazam konsentrik stukturaga muvohiq ravishta joylashtiriladi. Buning ma'nosi shuki, talabalarda konsunturoktorlik ko'nikmalarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan mehnat jarayoni, mavzularini o'rganish, ishlarning texnologik haritalarini rejalashtirish va hokozolarning bajarilishi muntazam tartibda joylashtirikadi, ya'niy har bir keyingi mavzu oldingi mavzuning davomi bo'ladi.

Maxsus fan o'qituvchisi
Yodgorova Muhayyo
4 soatga mo'ljallangan

“Tasdiqlayman”
O'quv ishlari bo'yicha
direktor o'rinbosari

Dars reja matni

Guruh:

Sana:

Darsning tartib soni: № 4 soatga mo'ljallangan

Darsning mavzusi: Rangtasvirida manzara ishlashni tushuntirib
ko'rsatish.

Ta'limiy: Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida talabalarning kasbiy
malakalarini shakllantirish ustoz shogird
an'analariga amal qilishni o'rgatish.

Rejalashtiruvchi: Talabalarga individual usulda topshiriq berib,
ularning ijodiy qobiliyatini o'stirish.

Darsning turi

Darsda qo'llaniladigan asosiy usullar: Amaliy-nazariy

Darsning jihozlari: Ushbu darsga taaluqli bo'lgan
asbob uskunalar, materiallar
chizmalar va slaydlar

Darsning mazmuni.

- 1. Tashkiliy qism :** Talabalar bilan salomlashib, jurnaldagi ro'yxat bo'yicha yo'qlama qilib chiqish
- 2. O'tilgan dars mavzusini so'rab, mustahkamalash va talabalar bilimini baholash.**
 - a) rangtasvir tarixini bilasizmi?
 - b) Rangtasvir so'zining ma'nosini aytib bering?
 - c) Rangtasvir necha hil bo'ladi?
 - d) Me'moriy manzara qanday ishlanadi.
- 3. O'tilgan mavzuga yaku yashash.**
- 4. Yangi mavzuning boshi.**
- 5. O'tilgan mavzu yuzasidan savol javoblar.**
- 6. Uyga vazifa.**
- 7. Darsni yakunlash.**

Darsning borishi

Reja:

- a. Me'moriy manzara ishlash ketma-ketligida talabalarning kasbiy malakalarini shakllantirish.
 - b. Manzara ishlashda, grafik ishlarni bajarishda, ustoz shogird an'analari, ustoz va shogirdning o'zari mezonlari asosida ish yuritib boorish.
 - c. Yuqorida o'tilgan dars ketma ketligi jarayonida talaba tafakkuri va kasbga qiziqishni oshirib rivojlantirish orqali mavzuga oid plakatlar seriyasini yaratish.
 - d. eskizlardan foydalanib, qog'ozga eskizlarni tushirish, ishlab chiqarish kasbiy ta'limi o'sishdan maqsad manbalar mustaqil holdako'rsatma va tavsiyanomalarga kasb-hunar, kasbiy haddi harakatlar majmuasini shakllantirishdir. Talabalarga kasbiy ta'lim berish mazmuni deyilganda shunday bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi tushuniladiki, ularni egallash orqali muayyan kasb va malakaga ega bo'lgan kichik mutaxassis tayyorlash ta'minlanadi. Ishlab chiqarish kasbiy ta'limning asosiy vazifasi bo'lajak malakali kichik mutaxassislarni muayyan yo'nalish sohasida amaliy faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan ya'ni bilimlarni amaliyotga tadbqiq etishga o'rgatishdan zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.
- Shunday qilib ishlab chiqarish kasbiy ta'limining asosiy

mohiyati talabalarga tegishli ixtisoslik bo'yicha mehnat jarayonlarini bajarish yo'llari va usullarini o'rganishdan iboratdir.

Respublikamizda amalgam oshirilayotgan islohatlar xalqimiz farofon hayot kechirishi va faol ijodiy mehnat qilish uchun murakkab shart sharoit yaratish, mintaqamiz va butun dunyoda ijtimoiy iqtisodiy siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadlarni ko'zda tutadi.

Bu muhim maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda malakali mutaxassislar kadrlar shak shubhasiz hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. U aholining bilimdonlik darajasi ish bilan bandlikning kasbiy malaka tuzilmasi va shu kabi ko'pgina shart sharoit vositalar orqali tarkib topadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash ularni oqilona foydalanish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda "Ta'lim to'g'risidagi va kadrlar tayyorlash milliy dasturi " kabi qununlarni izchil amalga oshirish maqsadida men ham ustozlarim qatori kasbiy kollej talabalariga badiiy bezak va naqqoshlik fanidan dars berib, bu fanning sir-u asrorlaridan bohabar qilib o'rgatishni maqsad qilib oldim.

Rangtasvirda Me'moriy manzara tasvirlashning amaliy nazariy dars o'tish uslubi.

Asosiy savollar:

1. Rangtasvir san'ati haqida qisqacha ma'lumot.
2. Rangtasvirda manzara janri
3. Manzara ishlash asoslari

Ko'rgazmali qurollar: Rangtasvirda manzara janriga oid plakatlar , illyustratsiyalar.

O'qituvchi o'quvchilar bilan birga rangtasvirda manzara janri haqidagi tushunchani shakllantiradilar.

O'quvchilar ko'rgazmali qurollarga qarab rangtasvirda manzara janri haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

O'quvchilar qog'ozda manzara janridagi rangtasvirning eskizini bajarishadi.
(qalamtasvirda)

O'quvchilar bajarilgan ishlar bo'yicha nazariy savollar tuzadilar

10 ta savol .

Savollarga javob qidirilib dars o'zlashtiriladi.

Dars o'tish rejasi (80 minutlik dars taqdimoti)

№	Dars bosqichi	Didaktif jihozlar	Mazmun va unga doir harakat	Usul	Vaqt (minut)
1	2	3	4	5	6
1	Tashkiliy qism	Guruh jurnali	Salomlashish, davomat	Savol javob	5
2	Uy vazifasini tekshirish va baholash	Doskada bajarilgan ish, o'zlashtirish varag'i	a) bajarilgan uy vazifasini tekshirish b) o'tilgan dars mavzusini so'rab mustaxkamlash c) bilimlarni baholash	Nazorat Taqdimot va munozara joriy baholash	5 10 5
3	Motivatsiya	Hayotiy misollar	Qiziqarli o'yinlar	Suhbat	5
4	Yangi mavzu bayoni	Doska chizmalik kartochkalar	O'qituvchi o'quvchilar bilan birga rangtasvirda manzara janri haqidagi tushunchani shakllantiradilar.	Amaliy nazariy	5
5	Mavzuni mustahkamlash	Ko'rgazmalik qurollar	O'quvchilar ko'rgazmalik qurollarga qarab, rangtasvirda manzara janri haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.	Mustaqil ish	5
6	Mavzuni mustahkamlash uchun mashqlar	Topshiriq kartochkasi	O'quvchilar qog'ozda manzara janridagi rangtasvirning eskizini bajarishadi (qalamtasvirda)	Mustaqil ish	20
7	Savol tuzish	Nazariy savollar	O'quvchilar bajargan ishlar bo'yicha nazariy savollar tuzadilar	Mustaqil ish	5
8	Darsni o'zlashtirish	Doska	Savollarga javob qidirilib dars o'zlashtiriladi	Taqdimot	10
9	Yakuniy qism	Texnologik xarita	a) Yakuniy xulosa b) Uyga vazifa	Maruza mustaqil ish	5
	Tuzuvchi fan o'qituvchisi Yadgorova Muhayyo				

“Tasdiqlayman”
Kollej direktori

O'quv yiliga mo'ljallangan I-bosqich
Rangtasvir guruhi uchun o'quvchi
Yadgarova Muhayyoning Rangtasvir
fanidan tuzgan yilik ish dasturi

t/r	Bo'lim va mavzularning nomi	Mashg'ulot tartib	Dars o'tilgan kun	Dars ajratilgan soat	Mashg'ulot tipi va turi	Ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar	Mustaqil ish turi Amaliy laboratoriya tadqiqoti	Uy vazifasi	Adabiyotlar	Fanlar Aro bog'lanish	Izoh
I	II	III	IV	V	VII	VIII	VIII	IX	X	XI	XII
1	Mutaxassislikka kirish	№1	2.04.13	2	Og'zaki amaliy	Rangtasvirga oid plakat va slaydlar	Rangtasvir faniga oid maktabda olgan bilim va ko'nikmalar yozma bayoni	Rangda tasvirlashda qo'llanila Digan adabiyotlar va asboblari	Xalq amaliy san'ati muzeyi	Umum fanlar	
2	Kirish Rangtasvir asoslari	№2	14.04.13	2	Og'zaki	Rangtasvir asoslarini isbotlab beruvchi plakatlar					
3	Rang tasvir turlari	№3	20.04.13	2	Og'zaki	Rang tasvir turlariga oid rasmlar	Rang tasvir turlarining ish dasturiga yozib borish			Adabiyot tarix	
4	Rangtasvirda mazmun va shakl	№4	26.04.13		Og'zaki	Rangtasvirda mazmun va shaklga oid bayonnomalar va rasmlar		O'qub kelish	Axmarov	Adabiyot tarix	
5	Rangtasvir janrlari	№5	2.05.13		Og'zaki	Rangtasvir janrlariga oid janrlar					
6	Rangtasvirda manzara janri	№6	8.05.13		Og'zaki	P/Benkov asarlaridan illyustratsiyalar	Mustaqil o'qish	O'qib kelish	A.Umarov		
7	Rangtasvirda manzara ishlash	№7	14.05.13		Og'zaki va amaliy	Rangtasvir asboblari o'rganishga oid rasm va plakatlar		Rangtasvir asboblari bilan tanishish		Rasm	
8	Dars o'tish xonasida xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligi	№8	20.05.13		Og'zaki	Dars o'tish xonasida xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligiga oid plakatlar	Plakatlarni o'rganish			Fizika ximiya	

9	Ishlatiladigan asbob uskunalat mo'yqalamlarni saqlash qoidalari	№9	26.05.13		Og'zaki	Ma'lum usullardan foydalanish					
10	Rangtasvirda ishlatiladigan moybo'yoq turlari	№10	1,06,13	2	Og'zaki	Moyboyq turlari tasvirlangan slaydlar	Eng sifatli moybo'yoq ni tanlash	Eng sifatli mob qalam, tanlash		Fizika ximiya	
11	Rangtasvir eskizlarini qog'ozga chiqarish	№11	7.06.13	4	Amaliy	Illyustratsiya lar chizilgan plakatlar	Eskizlarga bo'yoq tanlash			ximiya	
12	Rangtasvir san'ati haqida tushuncha berish	№12	13.06.13	2	Og'zaki	Memoriy manzaralar tasvirlangan plakatlar				kompozitsiya	
13	Rangtasvirni qalamda so'ngra rangda kerkli o'lchamda chizib olish.	№13	19.06.13	4	Amaliy					Matematika	
14	Rangtasvirad manzara chizish	№14	25.06.13	4	Amaliy	Eskizlardan foydalanish	Manzara kompazitsiyalarini tushurish			Chizmacilik	
15	Taqsimot jami			50							

Tuzuvchi fan o'qinuvchisi:

Yodgorova Muhayyo

Samarqand viloyati
Samarqand shahri
San'at kolleji

“Tasdiqlayman”
kollej ma'naviyat va
ma'rifat ishlari bo'yicha
direktor o'rinbosari

**Yadgorova Muxayyoning 2012-2013 o'quv yilida bajariladigan ma'naviy
ma'rifiy ishlar rejasi**

№	Bajariladigan tadbirlar	Bajarish muddati	Izoh
1	Avgust	25.08.12	Murabbiy
	Dars sinfxonasining davlat ramzlari “Prezident partreti davlat gerbi, davlat bayrog’i, davlat ”		
2	Senryabr	1.09.12	Ma’naviy va ma’rifat bo’yicha direktori o’rinbosari
	1-sentyabr O’zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuniga bag’ishlangan tadbirda qatnashish		
3	Sentiyabr	2.09.12	Direktor Murabbiy
	Bilim yurtiga kelgan talabalarni bilim yurtinig qonun qoyidalarini bilan tanishtirish		
4	Oktyabr	Doimiy	Murabbiy
	Rangtasvir mevoriy manzara janri haqida suhbat		
5	Guruh davomati va o’qish jarayinini tekshirib borish		
6	Noyabr	Doimiy	Tarix o’qituvchisi
	O’zbekiston Respublikasining Davlat ramziy belgilari haqida talabalarga to’liq ma’lumot berish		
7	Dekabr	7.11.12	Murabbir Tarix o’qituvchisi
	“8-dekabr O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni” mavzusida talabalarga maruza o’qish.		
8	Yanvar	25.01.13	Murabbiy
	I-yarim yillik yakuni, guruhning umumiy va maxsus fanlardan to’plangan joriy, oraliq va yakuniy nazorat reyting ballarni ko’rib chiqib talabalar bilan birgalikda taxlil qilish		
	Tuzuvchi guruh rahbari: o’qituvchi Yodgorova Muhayyo		

Xulosa

Xulosa.

Avvalombor birinchi o'rinda diplom ishimga nima uchun aynan shu mavzuni tanlaganligim sabablarini aytib o'tsam.

Birinchidan vatan oldidagi farzandlik burchi bo'lsa, so'ngra bu muqaddas tuproqda yashab o'tgan buyuk avliyolarning ruxlarini shod aylash bilan birga Samarqand viloyati Payariq tumanidagi muqaddas memoriy obidani keng targ'ib qilishdan iboratdir.

Ushbu tamoyillar sabab rahbarim bilan maslahatlashgan holda diplom ishimga aynan shu mavzuni tanladim.

Diplom ishining rangtasvirning memoriy manzara janrida bajarishimda to'rt yil davomida uztozlardan olgan bilim va ko'nikmalarimdan unumli foydalanishga harakat qildim.

Albatta ishimga baho berish hurmatli DAK raisi va komissiya a'zolari hukmingizga havola.

Men esa o'z navbatida fursatdan foydalanib, to'rt yil davomida tahsil olishimda yordam bergan ustozlarimga, uztozlarim qatori ota onamga alohida rahmat aytaman.

Ularning beminnat yordamlarisiz men "Kasbiy ta'lim" kafedrası bitiruvchi talabasi bo'lmas edim.

Adabiyotlar

Adabiyotlar

1. I.A Karimov “Yangicha ishlash va fikrlash davr talabasi”
Toshkent 1997 “O’zbekiston nashriyoti”
2. “Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”
Toshkent 1997 y
3. N.Oydinov “Rassom – O’qituvchilar tayyorlash muammolari”
Toshkent 1997 y “O’qituvchi nashriyoti”
4. X. T Avliyoqulov “Zamonaviy o’qitish texnologiyalari”
Toshkent 2001 y
5. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. “Buyodkor” gazetasi 2009 yil № 2 soni
7. “Pedagogika” Toshkent 1977 yil “O’qituvchi nashriyoti”
8. Abrirasilov S Tolipov, “Rangtasvir”
Toshkent “Bilim” O’UKXTU 2005 y
9. Nabiyeu M “Rangshunoslik” Toshkent. “O’qituvchi” 1995 y
10. Egamov X. “Bo’yoqlar bilan ishlash” Toshkent
“O’qituvchi” 1981 y.
11. WWW. Ziyonet.uz /Xoja Ismoil al – Buxoriy/ mail @ uz
12. WWW. Kitob. / Xoja Ismoil al – Buxoriy/ mail @ uz

